

6-sinf adabiyot

1-CHSB

I variant

1. (B – 2). Qaysi ma'lumot Abdulla Qahhor hayoti va ijodiga mansub?
 - A) Otasi "Mirzo" va "G'ulom" taxalluslari bilan talay she'rlar yozganligini eslaydi.
 - B) G'am-g'ussaga to'la "O'g'ri", "Yaxshilik", "Bemor", "Tomoshabog'", "Anor" kabi hikoyalar muallifi hisoblanadi.
 - C) "O'g'ri" hikoyasida tarixiy davr muhitini ko'rsatish uchun bir qancha eskirgan so'zlardan foydalanadi.
 - D) Ro'zg'or tebratish uning zimmasida qolgani sabab oliy o'quv yurtida o'qiy olmaydi.

2. (B – 2). G'afur G'ulom hayoti va ijodiga oid bo'lgan ma'lumotni aniqlang.
 - A) Adib qisqa hikoyalarning mohir ustasi bo'lgan rus yozuvchisi Anton Pavlovich Chexovni o'z ustozini deb hisoblagan.
 - B) Yozuvchining bolalarga bag'ishlangan bir asarida bosh qahramonning ismi "qurbaqacha" degan ma'noni anglatadi.
 - C) Yozuvchi qalamiga mansub "Dunyolar jangi" ilmiy-fantastik romanida Yerga o'zga sayyoraliklar, ya'ni marsliklar hujum qilishadi.
 - D) Asar qahramoni onasining qattiq koyishidan ranjib, uyidan chiqib ketadi va pul topish ilinjida turli ishlarga qo'l uradi.

3. (B – 2). Odil Yoqubov hayoti va ijodiga oid bo'lgan ma'lumotni aniqlang.
 - A) Adib o'zbek yozuvchilari orasida birinchilardan bo'lib, tarixiy mavzuda fantastik asar yozgan.
 - B) Uning bolaligi hozirgi Farg'ona viloyatining Qo'qon shahri atrofidagi qishloqlarda o'tgan.
 - C) Adibning "Muzqaymoq" hikoyasi xalqimiz tarixidagi og'ir damlarni hikoya qiluvchi asari hisoblanadi.
 - D) Adib bir hajviy asarida "musichadek bo'lib qolgan" chol va kampir haqida hikoya qilinadi.

4. (Q – 2,4). O'tkir Hoshimovning "Eng og'ir gunoh" asaridagi bolaning yong'oq o'yinidan asl maqsadi berilMAGan qatorni aniqlang.
 - A) Bola o'zi aytganidek, u ham o'yin, ham ovqat edi.
 - B) Shunchaki bolalar bilan o'ynaydigan asosiy o'yinlaridan biri edi.
 - C) Onasini hayratga solish uchun hammani yutib, ko'p yong'oq terishga urinar edi.
 - D) Bolaning otasi unga ko'proq yong'oq yutib kelishini buyurgan edi.

5. (Q – 2,4). O'xshatish badiiy tasvir vositasi ishtirok etgan gapni aniqlang.
 1. Momaqaldiroq gumburlab, yirik-yirik yong'ir tomchilari shatir-shutur qilib tusha boshladi.
 2. U simning ochiq qismini qulupnay pushtalari ustiga uloqtirdi. Sim ilonday bilanglab pushta ustiga tushdi.
 3. Sherzod yerga ursa, ko'kka sapchiydigan, tinib-tinchimas bola.
 4. O'rnimdan sakrab turdim. O'sha vahimali va qaynoq tuyg'uga bo'ysunib bog'ga otildim.

5. Ammo qo‘lingiz ham xina qo‘ygandek sarg‘ayib ketadi.

- A) 2, 3, 5
- B) 2, 5
- C) 3, 4
- D) 1, 2, 4

6. (Q – 2,4) Ushbu parcha haqidagi to‘g‘ri hukmni aniqlang.

“Otamizning o‘lganiga anchagina yil o‘tib ketdi. Bu yil – o‘n yettinchi yilning ko‘klamida onamizdan ham ajralib, shum yetim bo‘lib qoldik. Biz to‘rt yetimdan xabar olib turishga katta onam – onamning onalari Roqiyabibi kelib turibdilar. Bu kishini biz erkalab “qora buvi” deb ataymiz”.

- A) Ushbu parcha “Shum bola” qissasidan keltirilgan bo‘lib, unda yetim bolaning sarguzashtlari haqida hikoya qilinadi.
- B) Ushbu parcha “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasidan keltirilgan bo‘lib, unda XX asr boshlaridagi xalqimiz hayoti aks ettirilgan.
- C) Ushbu parcha “Yaxshilik” hikoyasidan keltirilgan bo‘lib, unda urush va urushdan keyingi davr voqealari aks ettirilgan.
- D) Ushbu parcha “Shirin qovunlar mamlakati” asaridan keltirilgan bo‘lib, unda qovunxo‘r Akromjonning sarguzashtlari haqida gap boradi.

7. (Q – 2,4) Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasi voqealari yuzasidan bildirilgan to‘g‘ri hukmni toping.

- A) Ellikboshi og‘ilga kirib teshikni, ho‘kiz bog‘langan ustunni diqqat bilan ko‘zdan kechiradi, ustunni qimirlatib, taftish o‘tkazadi.
- B) Qobil boboni ellikboshi mingboshiga, mingboshi aminga, amin esa tilmochning oldiga jo‘natadi.
- C) Yo‘qolgan ho‘kizni nihoyat ellikboshining qaynatasi Egamberdi paxtafurush kuz faslida topib beradi.
- D) Kampir kechqurun tovuqlariga suv berish uchun og‘ilxonaga kirganda ho‘kizi yo‘qolganini bilib qoladi.

8. (Q – 2,4). Quyida berilgan gaplardan “O‘g‘ri” hikoyasiga tegishlilari to‘g‘ri berilgan qatorni aniqlang.

- 1. “Quruq qoshiq og‘iz yirtadi”.
 - 2. “O‘ynashmagil arbob bilan-seni urar har bob bilan”.
 - 3. “Uni begim deguncha kishining beli sinar ekan”.
 - 4. “Jinoyatning katta-kichigi bo‘lmaydi”.
- A) 1, 3
 - B) 2, 4
 - C) 1, 2, 4
 - D) 1, 2, 3

9. (Q – 2,4). G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasi voqealari yuzasidan bildirilgan to‘g‘ri hukmni aniqlang.

- A) Boy o‘rtancha qizi Adolning dunyoga arziydigan o‘g‘ilcha tug‘ganini eshitib, choy ichib o‘tirgan piyolasini peshonasiga urib, chakkasini yoradi.

- B) Sariboy Chuvalachidagi Yusuf kontordan arzon narxda uning mevazorlari, ichki-tashqi qo'rg'onchasi, butun dov-dastgohining hammasini sotib oladi.
- C) Shum bola xom-xatala olmalarni aravaga ortib, Darvoza, Sariog'och atroflaridagi bug'doykor qishloqlarga olib borib bug'doyga almashtirib kelardi.
- D) Sariboy bo'lis haligacha shum bolaning xo'jayinlari ichida eng boyi, mehriboni va saxiysi edi.

10. (Q – 2,4). “Shum bola” qissasidan keltirilgan parchalarni hikoya mazmuniga oid ketma-ketlikda joylang.

1. “Haydab chiqarmoqchi bo'ldilar. Ketish oldida boydan haq talab qildim. Chunki boyning eshigida bir oy-u o'n to'qqiz kun ishlagan ekanman”.
2. “– Asil umring Sariboyda bekorga o'tib ketadi, uka, yosh ekansan. Bironta boshqa kasbning payidan bo'lganingda yaxshi bo'lar edi”.
3. “Gard orasidan oriqliq baytalga mingan bir uzumchi chol paydo bo'ldi. Men uning bariga yopishib, meni ham o'tkazib qo'yishini iltimos qildim”.
4. “Qiladigan ishlarim uncha ham qiyin emas. Olmalarga tirgovuch qo'yaman, to'kilgan olmalarni terib, qoqi qilaman. Bog' qo'riyman”.

- A) 1, 2, 4, 3
B) 3, 2, 4, 1
C) 2, 4, 1, 3
D) 3, 4, 2, 1

11. (Q – 2,4). “Yaxshilik” hikoyasidan keltirilgan parchalarni hikoya mazmuniga oid ketma-ketlikda joylang.

1. “Oradan o'n besh kunlar o'tganda tog'am bilan birga jangga kirgan bir hamqishloq yigitdan xat keldi. U yigitning yozishicha, tog'am yarador bo'lib, gospitalga olib ketilgan emish”.
2. “... Buvimning sersoya bog'i qarindosh-urug'larimizga, tog'amning yor-birodarlariga to'lgan: birov o'choq qurmoqda, birov o'tin yormoqda, birov hovliga suv sepib, so'riga palos yozmoqda. Kechqurun to'y!”
3. “– Yaxshilik?! – kelinoyimning ko'zlari oldin jiqqa yoshga to'ldi, so'ng birdan o't chaqnadi: – Topgan yaxshiliging shu bo'lsa... Yo'qol ko'zimdan! Yo'qol!”
4. “... Qishloqi soddalikni qarang! Xayolimda hech narsa yo'q, chopganimcha borib mehmonxonaning eshigini sharaqlatib ochibman! To'rda o'tirgan kelinoyim cho'chib o'girildi”.

- A) 2, 4, 1, 3
B) 2, 1, 4, 3
C) 1, 4, 3, 2
D) 3, 2, 4, 1

12. (Q – 2,4). Odil Yoqubovning “Yaxshilik” hikoyasi yuzasidan bildirilgan to'g'ri hukmni aniqlang.

- A) Mushtipar onaning bebosh o'g'ilni to'g'ri yo'lga solishi yo'lida chekkan mashaqqatlari aks ettirilgan asar.
- B) Asar urushga ketgan to'rt farzandini kuta-kuta og'ir kasallikka duchor bo'lgan mushtipar ona haqida.

- C) Asarda chin dildan qilingan yaxshilikning ham ba'zan kutilmagan, achchiq oqibatlariga olib kelishi mumkinligi ko'rsatilgan.
- D) Birinchi jahon urushida halok bo'lgan mard o'zbek o'g'lonlarining mangu xotirasiga bag'ishlangan asar.

13. (Q – 2,4) O'tkir Hoshimovning “Eng og'ir gunoh” asaridan keltirilgan parchalarni hikoya mazmuniga oid ketma-ketlikda joylang.

1. “Keyin dadam keldi, oyim oshxonadan bug'i chiqib turgan bir lagan lavlagi ko'tarib chiqdi. Lavlagi shirin narsa-yu, har kuni yegandan keyin jonga tegadi. Baribir non emas”.
 2. “Xom yong'oqning po'stini tozalash oson emas. G'adir-g'udir g'isht topib ishqalayverasiz, ishqalayverasiz. Oxiri sap-sariq yong'oq ajralib chiqadi. Ammo qo'lingiz ham xina qo'ygandek sarg'ayib ketadi”.
 3. “Nima uchundir onam tez-tez tolqon qilardi. Sababini keyin tushunganman. Non ko'pligi uchun emas, kamligi uchun tolqon qilisharkan. Tolqon to'yimli bo'ladi”.
 4. “Og'zimda tolqon bilan oshxonaga yugurdim. Bir chekkada yarimta g'isht, yonida tesha yotibdi. Po'choqlar orasini titkilab, yutadigan soqqamning yaltiroq po'chog'ini topdim”.
- A) 2, 3, 4, 1
B) 1, 3, 4, 2
C) 2, 4, 1, 3
D) 3, 4, 2, 1

14. (M – 5). O'tkir Hoshimovning “Eng og'ir gunoh” hikoyasiga mos kelMAYdigan xulosalarni aniqlang.

1. Har bir inson uchun gunohning og'irligi uning qalbida qoldirgan ta'siri bilan o'lchanadi. Aslida, eng og'ir gunoh — insonning ruhiy izzatlarini va vijdon azobi bilan bog'liq.
 2. Gunoh qilgan insonni faqat uni jazolash emas, balki uni tushunish, kechirish va unga yordam berish muhim.
 3. Hikoya jamiyat va oilaning insonning tarbiyasi va xatti-harakatlaridagi ahamiyatini ko'rsatadi, ya'ni atrofdagilarning ta'siri orqali odam o'zini to'g'ri yo'lga solishi mumkin.
 4. Inson qanchalik yomon ish qilgan bo'lsa ham, uning qalbini tozalash va uni yaxshilikka yo'naltirish imkoniyati mavjud.
 5. Odamlar faqat qo'rqibgina gunohdan tiyiladi, shuning uchun yomonlik qilgan odamni jazolash kerak, kechirish emas. Aslida, gunoh qilgan odamning yuragida hech narsa o'zgarmaydi.
 6. Gunoh qilgan odam hech qachon o'zgarmaydi. Ota-onaning tarbiyasi gunohga hech qanday ta'sir qilmaydi.
- A) 2, 4
B) 1, 3
C) 5, 6
D) 4, 5

15. (M – 5). “O'g'ri” hikoyasining boshida keltirilgan “Otning o'limi – itning bayrami” maqoli orqali qanday mulohaza qilish mumkin?

- A) Hayvonlarga odamlarning mehribon bo'lishi lozimligini bildirish uchun qo'llangan.
- B) Odamlar bir-birlarining boshiga tushgan qiyinchiliklarga beparvo holda yashayveradi.
- C) Uy hayvonlari qadimdan insoniyat uchun qadrlı jonivor sifatida e'tirof etib kelingan.
- D) Bir kishining baxtsizligi boshqalarning foydasiga xizmat qilishi mumkin.